

OILADA BOLA SHAXS SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING O‘RNI

Ganiev Botir Muxitdinovich

*Ichki ishlar vazirligi, Malaka oshirish
instituti katta o‘qituvchisi, podpolkovnik*

***Annotatsiya:** maqolada oila institutini mustahkamlash, yoshlarni oilaga tayyorlash hamda oilaviy ajrimlarning oldini olishning asosiy omillari – milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, er-xotin, ota-onalar, farzandlar o‘rtasidagi munosabatlarni, oilaning ma’naviy, axloqiy va huquqiy asoslarini mustahkamlash va takomillashtirish to‘g‘risida so‘z yuritiladi.*

***Kalit so‘zlar:** oila, nikoh, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, an’analar, yosh kelin-kuyov, oiladagi psixologik muhit.*

Dunyodagi har qaysi millatning o‘z milliy diniy qadriyatlari mavjud, bu qadriyatlar negizida turli ijtimoiy-iqtisodiy tuzumda xalqning orzu-istaklari, quvonch va tashvishlarini ifodalovchi yangi-yangi shakldagi va mazmundagi qadriyatlar maydonga keladi. Bu qadriyatlar shu millatning, shu xalqning jamiyat ma’naviy taraqqiyotida tutgan o‘rnini belgilab beradi. Shuning uchun farzandlarimiz ma’naviyati o‘z-o‘zidan rivojlanavermaydi. U eng avvalo davlatning oilaga, ta’lim va tarbiyaga beradigan e’tibori bilan bog‘liq bo‘ladi. Agar davlat shaxs ma’naviyatini rivojlantirishni siyosatning ustivor vazifasi sifatida qaraydigan bo‘lsa, uni rivojlantirishdagi omil va vositalaridan samarali foydalanishga yetarli e’tibor qaratadigan bo‘lsagina bu murakkab vazifani hal etish mumkin bo‘ladi. Jumladan oila barqarorligiga asos bo‘lgan huquqiy ahloqiy mezonlar hamma davlatlarda ham aynan bir xil bo‘lgan emas. Jamiyat hayotidagi iqtisodiy, siyosiy munosabatlar, diniy qarashlar, milliy an’analar, tarixiy sharoitlar, oilaviy munosabatlarning ahloqiy, huquqiy mezonlarni, aynan bir qolip bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Insoniyat jamiyati avloddan-avlodga taraqqiy etib, misilsiz yutuqlarga erishib borish bilan birga, boy berib borilayotgan

qadriyatlarimiz ham borki, ularni e'tibordan chetda qoldirish, ularga ahamiyat bermaslik, unutilib yuborish odamlar hayotida, ularning o'zaro munosabatlarida jiddiy ko'ngilsizliklarni yuzaga keltirishi mumkin.

Sog'lom avlodni dunyoga keltirishda, oilada ona va bola munosabatlarini tashkil etishda, ming yillar davomida ajdodlarimiz amal qilib kelgan, xalqimiz ruhiyatiga, turmush tarzi, urf-odatlariga singib ketgan shunday qadriyatlarimiz borki, bu qadriyatlar faqat oilada ota-onalar va bolalar o'zaro munosabatlarining yaxshi shakllanishi va rivojlanishini ta'minlabgina qolmay, balki xalqimiz, millatimizni dunyoga tanitgan yuzlab, minglab buyuk allomalarning yetishib chiqishiga ham zamin bo'lgan.

Sog'lom va mustahkam oilani shakllantirishga ta'sir etuvchi omillardan biri oilada sog'lom farzandni dunyoga kelishidir. Har qanday ota-ona o'z farzandini aqliy jihatdan barkamol, jismonan sog'lom, to'la-to'kis, benuqson tug'ilishini istaydi. Albatta bu - ham tashqi, ham ichki omillarga bog'liq.

Tashqi omillar: inson atrofini o'rab turgan ekologik muammolar, insonlararo munosabat, oiladagi sog'lom turmush tarzi, iqtisodiy va ijtimoiy omillar.

Ichki omillarga: qarindosh urug'chilik, irsiy kasalliklar, er va xotinning salomatligi, erta nikohga kirish, bilar-bilmasdan turli yot g'oyalarga ishonish, giyohvandlik, ichkilikka ruju qo'yish, chekish, onalar organizmining zaif rivojlanganligi hisoblanadi.

Qadimdan ajdodlarimiz mustahkam oila qurish, naslni sog'lom qilib ulg'aytirish, bolalarni komil inson qilib tarbiyalash orzusi bilan yashab kelgan.

Farzandlarimiz qalbiga qadriyatlarning, jumladan, islom dini tushunchalarining singib borishida turli xil ijtimoiy omillar muhim asosiy rol o'ynaydi. Yoshlar ongini zaharlashga qaratilgan radikal qarashlar, an'analarimizga mutlaqo yot ekstremistik va terroristik g'oyalarni-yu jamiyatimizga kirib kelishini bartaraf etuvchi yana bir qudratli vosita mavjud. Bu insonparvar, tinchliksevar, ma'rifatparvar va bunyodkor milliy-diniy qadriyatlarimizdir.

Farzandlarimizni turli mafkuramizga yot g'oyalardan asrash, ularda mafkuraviy immunitetni tarkib toptirish, o'sib kelayotgan yosh avlod ongini turli ta'sirlardan himoyalash, yoshlar orasida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish, bu borada ta'lim muassasalari-oila-jamoatchilik institutlari hamkorligida hududlarda;

Oilada sog'lom bolani tarbiyalash bo'yicha:

- “Ota-ona salomatligi – sog'lom nasl garovi”;
- “Sog'lom oila – sog'lom bola maskani”.
- “Sog'lom nasl, sog'lom farzand garovi”.

Oilada huquqiy, tibbiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha;

- oilada sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish;
- yosh avlod ongini turli yot ta'sirlardan himoyalash;
- yoshlarni sog'lom, ahil, mustahkam va baxtli oila qurish tayyorlash kabi tadbirlarni muntazam o'tkazib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Globalashuv sharoitida farzand tarbiyasida ota-onalarning ham bilimdonlik, o'qimishlik, ma'naviy-ma'rifiy yetuklik, ijtimoiy-siyosiy, diniy, huquqiy, tibbiy bilim va madaniyati yuksak bo'lishi bilan ahamiyat kasb etadi. Buning uchun oila a'zolari, xususan ota-ona o'z dunyoqarashini doimo boyitib borishi kerak, bo'sh vaqtdan unumli foydalanishi, ommoviy axborot vositalarida berilayotgan yangiliklardan voqif bo'lishi, farzandlarida sog'lom va teran dunyoqarashning bo'lishiga alohida e'tibor berishlari kerak.

Farzanlarning ta'lim-tarbiyasiga ota-onalar, ta'lim muassaslarining e'tiborsizligi oqibatida bolalarda turli yot illatlarni paydo bo'lishi, inson omiliga ta'sir etuvchi salbiy xolatlarning paydo bo'lishiga olib kelishi hammaga ma'lum. Shunday ekan, bolalarning bo'sh vaqtlarini ijodiy tashkil etish, davlatimiz yaratib berayotgan shart-sharoitlardan unumli foydalanish, uni yozgi sog'lomlashtirish ishlariga jalb etish, salomatligini doimiy nazorat qilib borish, kimlar bilan o'rtoq, vaqtni kimlar bilan o'tkazayapti, zararli odatlar bo'lsa uni oldini olish kabi tarbiyaviy omillar har bir tarbiyachining-ota-onaning birlamchi ishi bo'lmog'i

darkor. Shundagina biz o‘ylagan maqsadlarni amalga oshiradigan, jamiyatimizni ishonib topshiradigan, ma’naviyatli insonlarni yetishtirgan bo‘lamiz.

Sharqona tarbiya an‘analari farzand tarbiyasi va ayniqsa o‘g‘il bola tarbiyasida asosiy tarbiyachi sifatida otani ko‘radi, chunki mehribon va hokisor bo‘lgan onalar ko‘ngilchanlik qilib bolalarni erkalatib yuborishlari mumkin. O‘zbek xalq tarbiyasi an‘analari esa bolalarni erkatoy qilib tarbiyalashni qoralaydi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, sog‘lom turmush tarzi, bir tomondan, insonning jismoniy salomatligi va kamolotini nazarda tutsa, ikkinchi tomondan, inson ma’naviy va mafkuraviy salomatligi, uning shaxs sifatidagi to‘la kamol topishining asosini tashkil qiladi. Nafaqat jismoniy, balki ijtimoiy, ruhiy jihatdan o‘zini sog‘lom xis qilgan odamgina jamiyatning faol a‘zosi bo‘lib, o‘ziga va atrofida qilargana naf keltirishi mumkin. “Muxtasar aytganda, hammamizga ayon bo‘lishi tabiiyki, oila sog‘lom ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqarordir.”

Xulosa qilib aytganda, oxirgi yillarda olib borilayotgan ta’lim siyosati o‘z mevasini beradi va farzandlarimiz biz o‘ylagandek va undan ham ortiq nasl nasabimizga qarab dunyo tan oladigan ilm-ma’rifatli insonlar bo‘lib yetishadibiz yuqorida ta’kidlab o‘tgan turmush go‘zalligi mezonlari, faqat oila uchungina emas, balki jamiyat uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki turmushdagi turli xil yaxshilik va yomonliklarni farqlash salbiy, ijobiy narsalarni anglash, jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhimdir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Boboev H., Do‘stjonov T., Hasanov S. «Avesto» - Sharq xalqlarining bebaho yodgorligi. Toshkent Moliya Instituti, T.: 2004, 49, 63-bet
2. Sog‘inov N.A. Oilani o‘rganish psixodiagnostika metodikalari. (Maktab psixologlari, sinf rahbarlari, tarbiyaviy ishlar tashkilotchilari, odobnoma fani o‘qituvchilari uchun qo‘llanma). - Toshkent - 1996. - 35 b
3. G.Inomjonova “Oilaviy huquq” ota onalar va bolalar munosabatlari qaqidabazi muloxazalar. “qayot va qonun”. 2003 y №-2 73 bet

4. Oilada bolalarni ma'naviy –axlokiy huquqiy tarbiyalash muammolari va yechimi. T. 2004 y. 55-bet.
5. Shoumarov G'.B. va boshq. Onalarga psixolog maslahati (Ona-bola munosabatlari psixologiyasiga oid ilmiy-amaliy tavsiyalar).–Toshkent, 2002. - 27 b.